

OLIIY TA'LIM MUASASALARIDA TALABALARNI O'QITISHDA VA JAMIYATGA YO'NALTIRISHDA RAQAMLI MODELLAR

Sultanova Ozoda Rajabovna

Samarqand davlat veterinariya meditsinasi, charvochilik va biotexnologiyalari
universiteti o'qituvchisi

Yarashov Asilbek Ostun o'g'li, talaba

Abruyev Ravshanbek Asliddin o'g'li, talaba

Annotatsiya: Tabiiyki, har qanday ijtimoiy organizm tizimning muayyan xossalari majmuiga ega bo'ladi, biroq fuqarolik jamiyatiga ularning to'liqligi, barqarorligi va samaraliligi xosdir. Rang-barang ijtimoiy shakllar va uiversitet, institutlar (kasaba uyushmalari, partiyalar, birlashmalar, tadbirkorlar, klublar va h.k.) ning mavjudligi individlarning turli tuman ehtiyojlari va manfaatlarini ifodalash va ro'yobga chiqarish, odamzotning barcha qobiliyatlarini namoyon etish imkonini beradi.

Kalit so'zlar: Mehnatga haq to'lash, soliq xizmati

DIGITAL MODELS IN TEACHING STUDENTS OF HIGHER EDUCATION INSTITUTIONS AND ORIENTATION INTO SOCIETY

Abstract: Naturally, any social organism possesses a certain set of systemic properties, but civil society is characterized by their comprehensiveness, stability, and effectiveness. The presence of diverse social forms and institutions (trade unions, parties, associations, entrepreneurs, clubs, etc.) allows individuals to express and realize their diverse needs and interests, demonstrating all human capacities.

Keywords: payroll, tax services

ЦИФРОВЫЕ МОДЕЛИ В ОБУЧЕНИИ СТУДЕНТОВ ВЫСШИХ УЧЕБНЫХ ЗАВЕДЕНИЙ И ОРИЕНТАЦИИ В ОБЩЕСТВО

Аннотация: Естественнo, любой социальный организм обладает определенным набором системных свойств, но гражданское общество характеризуется их полнотой, стабильностью и эффективностью. Наличие разнообразных социальных форм и университетов, институтов (профсоюзов, партий, ассоциаций, предпринимателей, клубов и т. д.) позволяет индивидам выражать и реализовывать свои разнообразные потребности и интересы, демонстрировать все человеческие способности.

Ключевые слова: расчет заработной платы, налоговые услуги

Hozirgi sharoitda davlatni tartibga solish funksiyalaridan mahrum qilish mumkin emas ekan, u holda uning daromadlar va ish haqiga qanday ta'sir ko'rsatishi mumkinligini hal etish zarur. Birovlar iste'mol jamg'armalari miqdorini tartibga solish kerak, deb hisoblasa, boshqalar yakka tartibdagi soliq solish tizimidan foydalanish kerak, degan fikrni bildiradilar. Nazariy jihatdan ikkinchi variant maqbulga o'xshaydi. Lekin bizda hozirgi vaqtda davlat byudjeti daromadlar qismining faqat 7-10% fuqarolarning daromadlari hisobidan, g'arbdagi mamlakatlarda esa 50%

fuqarolarning daromadlari hisobidan shakllanmoqda. Soliq xizmati faoliyatini qayta qurish uchun, mulkchilikka soliq solishni joriy etish uchun hali biroz vaqt talab qilinadi.

Hozirgi paytda amalga oshirilayotgan mehnatga haq to'lashni davlat yo'li bilan tartibga solish quyidagilarni o'z ichiga oladi:

- mehnatga haq to'lashning eng kam miqdorini qonun bilan belgilash va o'zgartirish;
- korxona va tashkilotlar tomonidan mehnatga haq to'lashga ajratiladigan mablag'larni, shuningdek jismoniy shaxslarning daromadlarini soliq bilan tartibga solish;
- rayon koeffitsiyentlarini va foiz ustamalarini belgilash;
- mehnatga haq to'lash bo'yicha davlat kafolatlarini belgilash.

Mehnatga haq to'lashni rag'batlantirish, bundan tashqari, bosh, tarmoq, hududiy, jamoa va yakka tartibdagi shartnomalar hamda bitimlar asosida amalga oshiriladi.

Biz mehnat bozorida ishchi kuchining bahosi sifatidagi ish haqining mohiyatini belgilar ekanmiz, bu bilan mehnatga haq to'lashni tashkil etish asosida ham belgilagan bo'lamiz - bu xodimning iste'mol byudjetidir. Ish haqining moddiy-buyum ifodasi - iste'mol buyumlari (oziq-ovqat va noishlab chiqarish tovarlari), xizmatlari, soliqlar va boshqa to'lovlarni o'z ichiga oladi, ular ishchi kuchining takror xosil bo'lishi, ham xodimning, ham uning oila a'zolarining jismoniy va ma'naviy ehtiyojlarini qondirishni ta'minlaydi.

Xodimning iste'mol byudjeti sifatida bizda past standartdagi eng oz iste'mol byudjetidan foydalaniladi, eng kam ish haqi ana shunga asoslanadi. U malakasiz ishchi kuchining qiymati past chegarasi bo'lib, oy xisobiga pul to'lovlari tarzida xisoblab chiqiladi, bu pul to'lovlarini yollanib ishlayotgan kishilar normal mehnat sharoitida bajargan oddiy ishlarni bajarganligi uchun oladilar.

Mamlakatimizda mehnat haqining eng kam miqdori minimal iste'mol byudjetining 40% darajasida rejalashtirilgan. Bunga sabab avvalo shuki, ish haqi ishchi kuchini takror ishlab chiqarishning birdan-bir manbai emas. Ishchi kuchini takror ishlab chiqarish xarajatlariga, shuningdek kasallik varaqalariga, navbatdagi ta'tillarga to'lanadigan haqlar, kasbini o'zgartirish uchun to'lanadigan haq, ishdagi majburiy tanaffuslar, pensiya to'lovlari kiradi. Ishchi kuchini takror ishlab chiqarish ijtimoiy xarakterdagi har xil to'lovlar va hokazolar xisobiga ham amalga oshiriladi.

Biroq ish haqi ishchi kuchini takror ishlab chiqarishning asosiy manbai bo'lib qoladi. Eng kam ish haqi miqdoriga qarab tartibga solib turiladigan ish haqining tarif qismidan tashqari ish haqining tuzilishiga mukofotlar, ustama va qo'shimcha to'lovlar, shuningdek bevosita mehnat natijalari va mehnat hissasi bilan bog'liq bo'lmagan to'lovlar va shu kabilar ham kiradi. Ularning miqdori ham yuqorida ko'rsatib o'tilgan nisbatga ta'sir qiladi. Albatta, davlat tomonidan ijtimoiy yordam ko'rsatish imkoniyatlari ham muhim ahamiyatga ega bo'ladi.

Mehnatga eng kam ish haqi miqdori darajasida haq to'lashning davlat kafolatiga shu bilan erishiladiki, bunday haq to'lash darajasini ta'minlay olmaydigan

korxona va tashkilotlar bankrot deb e'lon qilinadi, tugatiladi yoki qaytadan tuziladi, ish beruvchilarning mablag'i xisobidan esa haq to'lashdagi qarzdorlikning o'zni qoplanadi.

Ish hakining tarmoqlar va rayonlar bo'yicha davlat yo'li bilan tartibga solib turilishi koeffisiyentlar va ustamalar asosida amalga oshiriladi.

Eng kam mehnat haqiga tadbqiq etiladigan koeffisiyentlari davlatning ijtimoiy to'lovlariga qat'iy summalarda va eng kam ish haqiga nasbatan foiz nisbatlarida tadbqiq etilishi lozim. O'rtacha ish haqidani xisoblab chiqariladigan ijtimoiy to'lovlarga (vaqtincha mehnatga layoqatsizlik bo'yicha nafaqalar, mehnat pensiyalari va hokazolar) nisbatan rayon koeffisiyentlari tadbqiq etilmasligi lozim, chunki o'rtacha ish haqining miqdori barcha mintaqaviy to'lovlar va ustamalarni xisobga olgan holda shakllanadi.

Shu bilan birga pensiyalarning eng ko'p miqdori ham ma'lum bir koeffisiyentlarni hisobga olgan xolda belgilanishi lozim.

Ijtimoiylashuv ijtimoiy, falsafiy, psixologik, pedagogik ilmiy maktablar tomonidan jarayon sifatida ko'rib chiqiladi. Ijtimoiy an'ana o'z e'tiborini shaxsning jamiyatga "qo'shilish" mexanizmidagi o'zgarishlarga, ijtimoiy institutlarning inson mavqyesiga ta'siriga, inson va jamiyatning axloqiy-xulqiy rivojlanishini ta'minlovchi aloqalar va o'zaro munosabatlarga karatadi. "Ijtimoiylashuv" tushunchasi ham jamiyatning yaxlit ijtimoiy-tarixiy rivojlanishi jarayonining tasnifi sifatida, ham ijtimoiy subyektlarning hayot kechirish tasnifi sifatida qo'llaniladi (mikroyondashuv). Ijtimoiylashuv jarayoni tadqiqotning umumiy yo'nalishi bo'lib, ilmiy qiziqishning "jamiyat"dan "inson"ga ko'chirilishi hisoblanadi. Jamiyat o'zaro munosabatlar tizimi sifatida zamonaviy tadqiqotchilar tomonidan voqyelikni inson in'ikosi orqali qabul qilinishi orqali ko'rib chiqiladi.

Ijtimoiylashuv insonning jamiyatga tomon tutgan yo'lidir, bunda ijtimoiylashuv natijasi sifatida nafaqat bilimlar, hunarlar, normalar internalizatsiyasi, balki inson asab tizimida ma'lum sifatiy ilgarilash "ichki nazoratchining shakllanishi", vijdon, ya'ni xatti-harakatni xuddi ma'qullayotgan o'sha hodisa kabi va sodir etilayotgan harakatlar uchun javobgarlikning ichki asosi bo'lishi ajralib turadi. Bunday yondashuv ijtimoiy raqobatbardoshlik muammolarini, "raqobatbardoshlik o'rmoni"ning ahlok normalari va qonunlarini qiyoslashni chuqurroq anglashga hissa ko'shadi.

ADABIYOTLAR RO'YXATI

1. Suvanova, D. (2023). SOCIO-PHILOSOPHICAL ANALYSIS OF THE SIGNIFICANCE OF RELIGIOUS VALUES IN THE FORMATION OF AESTHETIC CULTURE AMONG YOUNG PEOPLE. *Евразийский журнал медицинских и естественных наук*, 3(1 Part 1), 108-115.

2. Суванова, Д. К. (2021). СОЦИАЛЬНО-ФИЛОСОФСКИЙ АНАЛИЗ ФОРМИРОВАНИЯ ЭСТЕТИЧЕСКОЙ КУЛЬТУРЫ У МОЛОДЕЖИ. In *История, современное состояние и перспективы инновационного развития науки* (pp. 86-88).